

*Kipchakova Yorkinoy, teacher,
Fergana state university,
Uzbekistan, Fergana city
Kipchakova Yorqinoy, o'qituvchi,
Farg'ona davlat universiteti,
O'zbekiston, Farg'ona sh.*

**METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION
AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A
DEVELOPED GENERATION**

**BARKAMOL AVLODNI VOYAGA YETKAZISHDA INFORMATSION
VA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING
METODOLOGIK VA DIDAKTIK JIHLTLARI**

Annotatsiya: Ma'lumki, mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizimdir. Milliy o'zlikni anglash esa jamiyatda informatsion tahdidlarga qarshi kurashishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada barkamol avlodni voyaga yetkazishda informatsion va intellektual madaniyatni shakllantirishning muhim jihatlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shu bilan birgalikda informatsion tahdidlarga qarshi kurashishda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: axborot, axborot xavfsizligi, immunitet, mafkura, milliy o'zlik.

Milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash, milliy ongni yuksaltirish yagona millat ma'naviy dunyosining qo'sh qanotidir. Qush ikki qanoti bilan baland-balandlarga uchgani kabi milliy sha'nini o'z sha'nidek his etadi va uni himoya qiladi.

Mabodo milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash bo'lmasa, millat sha'ni tushib ketadi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas.

Insoniyat turmush tarzining rivojlanishi yangi-yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo'lmoqda. Inson yangilik yaratish jarayonida har xil to'siqlarga duch keladi va shu to'siqlarni yengib o'tish mobaynida yana yangi ixtirolar vujudga kelaveradi. Lekin hayot tajribalaridan mahlumki, ko'pincha yangi kashfiyot mahlum bir muammoni hal qilish jarayonida vujudga keladi. Biz so'zsiz kompyuter XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri desak yanglishmaymiz. Davr talabiga ko'ra, bugunga kelib, kompyuter texnologiyasi juda rivojlanib ketdi.

Axborot va axborot oqimiga oid muammolar ma'lum vaqtlar mobaynida shakllangan qonun va qonuniyatlar orqali turli davrlarda turlicha mazmun-mohiyat kasb etgan. "Yangi asr – axborot, yuksak texnologiyalar va zamonaviy bilimlar, oldimizda ochilayotgan yangi istiqbollari asridir... Bu shiddatkor asrda atrofimizda va xalqaro maydonda qanday yangi tahdid va xavf-xatarlar kuchayib borayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Bunday vaziyat barchamizdan, avvalo, hushyorlik va sezgirlikni, tez o'zgarib borayotgan zamon bilan hamohang bo'lib, uzoqni ko'zlab yashashimizni talab qilmoqda"[1, 54].

Internetga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Natijada axborot va kommunikatsiya sohasida ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda. Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, vayronkor g'oyalar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar yosh avlodning har biriga ta'sir o'tkazmoqda. Keyingi paytlarda internet orqali buzg'unchilikka chaqiruvchilar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanuvchilar ko'payib bormoqda[2,4].

Falsafa, informatika, kibernetika, sinergetika, sotsiologiya va iqtisodiyot tutashgan joyda ilmiy bilimning integral sohasi - ijtimoiy rivojlanishning axborot

nazariyasi shakllanadi. Bu nazariya doirasida axborot, informatsiya markaziy o'rinni egallaydi. Axborot iqtisodiyoti nuqtai nazaridan, iqtisodiy tizimlarning tashkil topishi va rivojlanishi qonunlari informatika qonunlari bilan belgilanadi. Axborotlashgan jamiyatda insonning yangi roli va o'rnini tadqiq qilish informatsion rivojlanishning asosiy vazifasidir.

Ma'lumki, mamlakatimizda olib borilayotgan kengqamrovli ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish va islohotlar, ijobiy natijalar inson omilini kuchaytirdi, jamiyat taraqqiyotining bu yangi bosqichida yoshlarning, barcha jamiyat ahzolarining islohotlardagi bevosita ishtirokini uyushtirish, ularni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan "qurollantirish" zarurati paydo bo'ldi. Ayni chog'da internet, elektron pochta kabi usul va vositalardan muntazam foydalanish orqali olinayotgan zamonaviy axborotlarning bevosita inson faoliyatiga joriy qilinishi, ulardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi yangi pedagogik texnologiyalarning yaratilishi tahlil tizimida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi[3,45].

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, informatsion madaniyat jahondagi umumiy taraqqiyotdan ortda qolayotgan mamlakatlarga turli yo'nalishlarda yordam ko'rsatish, inson muammosiga, ayniqsa uning mahnaviy dunyosiga har qachongidan ko'ra e'tibor qaratish, jamiyat va inson hayotining barcha tomonlarini qamrab olayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning murakkab muammolarini hal etish kabi global masalalarni o'rta qo'yimoqda.

Bizningcha, jamiyatning ma'naviy-axloqiy jihatlarini chuqur tadqiq etish, hozirgi insoniyat jamiyatida sodir bo'layotgan mahnaviy jarayonlar tendentsiyasini va mahnaviy hayot imkoniyatlarini butun murakkabliklari bilan tahlil qilish hamda muayyan xulosalar chiqarish mavjud inqirozlarning oldini olish uchun o'ziga xos imkoniyatlar yaratadi.

Bu o'rinda Sharq ma'naviy hayotining asosini tashkil etuvchi axloqiy mezonlarga qaytish, ularning ajdodlarimiz faoliyatida va kundalik turmushida naqadar katta hayotbaxsh rol o'ynaganini idrok etish, ana shunday tarixiy taraqqiyot yo'lini

tanlash natijasida ma'naviy-ruhiy yo'nalishlarda jiddiy martabalarni qo'lga kiritishga erishilganini hisobga olmoq lozim.

Shuni yodda tutmoq lozimki, zamonaviy axborot-kommunikativ tizim uchun anhanaviy sharqona ma'naviy-axloqiy mezonlar begona emas va ular shaxs ma'naviy axborot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda axborot xurujidan himoyalaniish uchun mustaqil fikr bo'lishi lozim. Shuningdek, jamiyatda yoshlarning o'zini-o'zi himoya qilishiga e'tibor berish kerak. Avvalo, har bir inson uchun mustaqil fikr zarur. Mustaqil fikrga ega bo'lgan insongina yaxshi yoki yomon ma'lumotning mohiyatiga yetib, ularga qarshi kuch topa oladi. Shuningdek, informatsion va ma'naviy tahdidlarga yo'l qo'ymaslik uchun milliy o'zlikni unutmaslik, yoshlarning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi kerak. Har bir inson, ayniqsa, barkamol avlod qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usi shakllantirilishi lozim. Informatsion tahdidlarga qarshi ma'naviy kurashishdan tashqari hozirgi kunda keng jamoatchilikda rivojlanib kelayotgan kompyuter madaniyati tushunchasini, odamlar faoliyatida axborot texnologiyalari majmuidan tegishli tarzda foydalana olishlari, hamda axborotlashgan jamiyatda noaniqlik sharoitida, inqirozli vaziyatlarda muhim qarorlar qabul qilishini to'g'ri o'rganishlari tushuniladi. Bu jarayonda o'tgan avlodlarning tajribasi kamlik qiladi. Odamlar vaziyatni mustaqil tahlil qilish, qabul qilinayotgan qarorlar olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni oldindan ko'rish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi. Yuksak ijtimoiy va ishlab chiqarish madaniyatisiz kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi mumkin emas, kompyuterlardan kundalik faoliyatda samarali va oqilona foydalanish esa kompyuter sohasida muayyan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. -11-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2008 y.

2. Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o'quv qo'llanma. Toshkent, 2016 yil.

3. Tojiyev M., Salaxutdinov R. va boshq. Tahlim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. Toshkent, 2001 yil.

4. Каримов, У., & Каримова, Г. (2018). ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ КОНКУРЕНЦИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018)* (pp. 1368-1372).

5. Каримов, У. (2017). ИНФОКОМТЕХНОЛОГИИ (ИКТ) ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ЛИЧНОСТИ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017)* (pp. 1160-1163).

6. Каримов, У., Хакимова, Д., & Халилов, Л. (2018). ИНФОРМАЦИОННОЕ И КОММУНИКАЦИОННОЕ ТЕХНОЛОГИИ ВЛИЯНИЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ В ТЕХНИЧЕСКОМ ОБСЛУЖИВАНИЕ. *Мировая наука*, (10), 193-197.